

SOHA TERMINOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVISTIK JIHATLARI

Zuhra Yoqubova,

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologiya fani borasida soʻz yuritiladi. Terminlarning shakllanish manbalari, ularning semantik xususiyatlari, standartlashtirish tamoyillari hamda soha terminologiyasini tartibga solishning lingvistik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari terminologik tizimni ilmiy asosda rivojlantirish va uni qoʻllash boʻyicha muhim nazariy-amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Kalit soʻzlar: termin, terminologiya, termin tizimi, termin yaratish, standartlashtirish, lingvistik tahlil, terminologik meʼyor.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОТРАСЛЕВОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Зухра Ёқубова,

преподаватель Ташкентского педиатрического

медицинского института

Аннотация. В данной статье рассматривается наука терминологии. Анализируются источники терминообразования, их семантические особенности, принципы стандартизации, а также лингвистические и практические аспекты регулирования отраслевой терминологии. Результаты исследования дают важные теоретико-практические выводы по научному развитию и применению терминологической системы.

Ключевые слова: термин, терминология, терминологическая система, создание терминов, стандартизация, лингвистический анализ, терминологическая норма.

LINGUISTIC ASPECTS OF THE FORMATION OF FIELD TERMINOLOGY

Abstract. This article discusses the science terminology. The sources of term formation, their semantic features, the principles of standardization, and the linguistic and practical aspects of regulating field-specific terminology are analyzed. The research results provide important theoretical and practical conclusions for the scientific development and application of the terminological system.

Key words: term, terminology, terminological system, term formation, standardization, linguistic analysis, terminological norm.

Terminologiya fanining mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ilk bor bu tushunchani tizimli ravishda ilmiy muomalaga Avstriya olimi Eugen Wüster kiritgan bo‘lib, u terminlarni standartlashtirish va yagona semantik asosda ishlatish muammolari bilan shug‘ullangan. Uning “Einführung in die allgemeine Terminologielehre” asarida qayd etilishicha, terminologiya bu fanlararo aloqada ishtirok etuvchi konseptlar uchun yagona belgilar tizimini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy yo‘nalish bo‘lib, ushbu soha “ilmiy muloqotni to‘siqsiz amalga oshirish kafolati”dir. [8, 21]

Keyinchalik bu g‘oyalar G‘arb va Sharq terminologik maktablari tomonidan rivojlantirildi. Jumladan, fransuz tilshunosi Alain Rey o‘zining “La Terminologie: noms et notions” asarida terminologiyani tilshunoslik, mantiq, falsafa va informatika bilan uzviy bog‘liq kompleks tizim sifatida talqin etgan. [7, 13]

O‘z navbatida, rus terminologiyasi maktabining vakillari V.M.Leychik, S.V.Grinyov va Yu.N.Marchuk ushbu sohani ilmiy jihatdan chuqur tahlil va tadqiq qilishga katta hissa qo‘shgan.

Ma‘lumki, o‘zbek tilshunosligida ham terminologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan bir qator olimlar shug‘ullanib kelishgan, hozirda ham Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, G‘.Abdurahmonov, M.Qodirova, R.Umarovlarning

tadqiqotlarida terminlar yaratish, ularni o'zlashtirish, sohalar bo'yicha klassifikatsiya qilish kabi muhim nazariy qoidalar bayon etilgan.

Shuningdek, zamonaviy tibbiy terminologiya, ayniqsa stomatologiya kabi ixtisoslashgan fanlarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, bu sohalarda yangidan-yangi tushunchalar va diagnostik-uslubiy texnologiyalar doimiy ravishda paydo bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, ilmiy-tibbiy terminlarning standartlashtirilgan, izchil va xalqaro talablarga javob beruvchi shaklda shakllanishini taqozo etadi. Stomatologik terminologiyada, ayniqsa, fransuz tilida, yunon-lotin termin elementlari asosida yaratilgan atamalar keng tarqalgan bo'lib, ular umumiy tibbiy terminologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Terminologiya nazariyasining chuqurlashuvi, albatta, fanlarning o'zaro murakkablashuvi, ixtisoslashuvi va doimiy yangilanishi bilan chambarchas bog'liq. Har bir fan sohasi o'zining maxsus leksik tizimini shakllantiradi. Bu tizim esa o'z navbatida o'zaro bog'liq terminlardan iborat bo'lgan terminosistemani tashkil etadi. V.A.Tatyanchenkoning fikricha, "terminologik tizim bu — bir-biriga ichki semantik va ierarxik jihatdan bog'langan terminlar majmuasidir". [5, 47] Bunday tizimlar ilmiy bilimlarni kodlash, saqlash va uzatishda asosiy til vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bu jihatdan, meditsina fanining terminologik tizimi eng boy va tizimlashtirilgan sohaga aylangan. Ayniqsa, tibbiy yo'nalishlar ichida stomatologiya — mustaqil fanga aylangach, o'z terminologiyasini xalqaro birlik asosida shakllantira boshladi. Dastlab stomatologik terminlar umumtibbiy atamalar doirasida qaralgan bo'lsa-da, hozirda ular alohida tizim sifatida o'rganilmoqda. V.V.Vinogradov stomatologiyani "tibbiyotdagi eng ko'p ixtisoslashgan va terminologik jihatdan boy yo'nalishlardan biri" deb ataydi. [1, 112]

Stomatologik terminlarning asosiy xususiyati shundaki, ular yunon-lotin termin elementlari asosida shakllangan bo'lib, ushbu asoslar ularni xalqaro darajada tan olinadigan va bir xil tushuniladigan qilgan. Masalan, "stomatologie", "orthodontie", "parodontite", "odontalgie" kabi terminlarning shakllanishi

yunoncha “stoma” – og‘iz, “orthos” – to‘g‘ri, “odontos” – tish, “algos” – og‘riq kabi o‘zaklarga borib taqaladi. Bu esa ularni fransuz, ingliz, nemis, rus, o‘zbek tillarida deyarli bir xil shaklda qabul qilinishini ta’minlagan. [2, 320]

Ushbu holat E.Wüster tomonidan ilgari surilgan terminologik birlik nazariyasiga to‘la mos keladi. U terminlarning xalqaro standartlashuvi haqida shunday yozadi: “Agar fanlararo yoki davlatlararo hamkorlik samarador bo‘lishi istalsa, terminlar barcha tillarda bir xil semantik tozalikka ega bo‘lishi kerak”. [8, 34] Shuning uchun ham tibbiyotda, ayniqsa stomatologiyada terminlarning yunon-lotin asosida shakllanishi tasodifiy emas.

Bundan tashqari, terminlar faqat leksik birlik emas, balki kognitiv model hamdir. Bu fikrni V.M.Leychik ham ilgari surgan. U terminlarni “fanning konseptual bazasini aks ettiruvchi mantiqiy struktura” sifatida ko‘radi. [3, 39] Ayniqsa, tibbiyot fanida, har bir yangi aniqlangan sindrom, protsedura, asbob yoki fiziologik hodisaga yangi terminning pasda bo‘lishi — bu fanning kognitiv jihatdan boyishidan dalolat beradi. Misol uchun, "implantologie", "gingivoplastie", "endodontie" kabi atamalar sohaning tor ixtisoslashgan qismlariga doir bo‘lib, har biri aniq semantik belgilashga ega.

Ma’lumki, o‘zbek tili terminologiyasida ham stomatologik terminlar ko‘pincha rus tilidan o‘zlashtirilgan holda qo‘llaniladi, biroq ularning aksariyati aslida yunon-lotin asosida shakllangan. O‘zbek tilshunos olimasi M.Qodirova bu haqida shunday deydi: “O‘zbek tiliga tibbiy terminlarni o‘zlashtirishda ularning fonetik mosligi bilan birga, xalqaro semantik birlikni saqlash muhimdir”. [6, 33] Shuning uchun "parodontit", "ortodontiya", "stomatologiya" kabi atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro modeli bilan mos holda kiritilgan.

Zamonaviy terminshunoslikda bunday terminlarni shakllantirishda faqat lingvistik emas, balki ontologik va funksional yondashuvlar ham qo‘llanilmoqda. Masalan, Yu.N.Marchuk stomatologik terminlarni kontekstual qo‘llanilishi, predmet-munosabat tizimidagi o‘rni va semantik chegaralari asosida tahlil qilish zarur deb hisoblaydi. [4, 42] Shu sababli zamonaviy terminologik tadqiqotlar

aynan stomatologik sohada terminlarning tasnifi, strukturasi va milliy moslashuvi bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida aytish mukinki, stomatologik terminologiya nafaqat maxsus atamalar yig‘indisi, balki u fanning ontologik mohiyatini ifoda etuvchi, ilmiy-tibbiy kommunikatsiyani samarali tashkil etuvchi muhim til tizimi ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов В.В. Проблемы терминологии в медицинских науках. – Москва: Медицина, 1979. – 192 с.
2. Larousse Médical illustré. – Paris: Larousse, 2009.
3. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва: Логос, 2007. – 160 с.
4. Марчук Ю.Н. Основы лингвистической теории терминологии. – Москва: Наука, 1981. – 240 с.
5. Татьянченко В.А. Терминологические системы научного языка. – Киев: Наукова думка, 1989. – 160 с.
6. Қодирова М. Тиббий терминларнинг лингвистик хусусиятлари. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – 96 б.
7. Rey A. La Terminologie: noms et notions. – Paris: Presses Universitaires de France, 1995.
8. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre. – Wien: Springer, 1979.